



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



BOSHLANG'ICHTA'LIMDA FANLARARO INTEGRATSIYA: DARSLARNI UYG'UNLASHTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Ilmiy rahbar: Shopulatova Nasiba Umirovna

*NIU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasidotsent v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Barnoqulova Marjona Bahodirovna

*NIU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-guruh talabasi*

Ta'lim mazmunidagi uyg'unliklarni ta'minlash muammolari ham integratsiyalashning shug'ullanadigan sohasi hisoblanadi. U tushunchalarni umumlashtirishni o'rgatish. Ta'lim va tarbiyada esa bilimlar, tushunchalar, ko'nikmalar va malakalarni shakllantirishlarni umumlashtirib, qonun yoki qoida ko'rinishiga keltirishni amalga oshiradi.

Integratsiya – lotincha «integratio» - to'ldirish, yaratish, tiklash, «integer» - butun demakdir. Integratsiya- «butun» degan ma'noni bildiradi, demak, bu tafakkur o'sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish bo'lib hisoblanadi. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez, yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alohida tizimlarning yaqinlashishi, bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir Integratsiyalash tushunchasi muhim ilmiy termin bo'lib, u umumlashtirish, xulosalashlarda metodologik vosita bo'lib hisoblanadi, chunki uning yordamida jarayon va hodisalar mazmunlari orasidagi umumiy uyg'unlik algoritmlari yaratiladi. Integrativ darslarni tashkil qilish orqali o'quvchilar bilan munozara qilish, ularni fantaziya qilishga o'rgatish, guruhlararo musobaqalarni tashkil etish, savol javoblarni uyushtirish mumkin.

Integratsiya tushunchasi quyidagi ikki xil jarayon sifatida talqin etiladi: birinchidan, tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon. ikkinchidan, tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan yaqinlashtirish jarayoni.

Quyida biz o'quvchilarni darsga qiziqtirish va boshqa fanlar bilan integratsiyalab PIRLS testini ko'rib chiqamiz:

Ushbu metod 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish savodxonligi, ya'ni matnni tushunishi, tahlil qilishi, va tabiiy fan, tarbiya va boshqa fanlar bilan integratsiyalash, fikr bildirish qobiliyatini baholaydigan xalqaro tadqiqotdir. O'quvchilarga maxsus test kitobi beriladi, savollar turli ko'rinishda: Shartli javob tanlash (A,B,C,D), javob yozish (ochiq savollar), o'quvchilar matnni o'qiydi, savollarga javob beriladi, test yakunida maxsus so'rovnomaga to'ldiriladi. Shu tarzda davom etadi. Ushbu matn 4-sinf darsligidan olingan.

Marvarid

Dengiz bo'yida boy hamda kambag'al bolalar barchasi birgalikda o'ynashar edi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Bir kuni ular suvga chuqurroq sho'ng'ish uchun dengizning o'rtarog'iga borishdi. "Men topgan narsaga qarang!" - deb baqirdi bir bola. "Bu marvarid, - dedi boshqasi, - u judayam chiroyli". Bolalar uni ko'rish uchun yig'ildilar. Ular marvaridning naqadar chiroyli va yorqinligini ko'rib, uni ushlab ko'rgilari kelardi. Ammo buni so'rashga hech kirn jur'at eta olmadi...

"Uni olsam bo'ladimi? Ha, u chindan ham chiroyli ekan". Bu birinchi bo'lib gapirgan bola edi.

"Bu haqiqatdan ham Joshniki. U topdi", - dedi qizlardan biri

"Ruben, marvaridni sen olaqol, - dedi Josh. - Chunki u senga judayam yoqib qoldi". O'sha kundan boshlab, bolalar Rubenni kamroq ko'radigan bo'lishdi. Ular tashqarida, toza havoda o'ynayotgan paytda Ruben ichkaridan chiqmay, marvaridlar haqida ma'lumotlar o'rganish bilan mashg'ul bo'lardi. U dengiz chig'anoqlari ichida marvaridlar qanday hosil bo'lishini bilib oldi. Oila a'zolari undan qanday sovg'a olishni orzu qilayotganini so'rashganida, u doim marvaridlari bo'lishini xohlashini aytardi. "Men katta bo'lsam, marvarid savdosi bilan shug'ullanuvchi tadbirkor bolaman", - derdi u.

Kun kelib shunday bo'ldi ham. Ruben do'stlari bilan xayrlashib, bolaligi o'tgan uyini, dengiz yaqinidagi ona shahrini tark etib, marvarid savdolari boladigan katta shaharlarga jo'nab ketdi. O'zidagi mayda marvaridlarni katta, bejirim marvaridga almashtirdi. Shundan so'ng u baliqchilar to'r tashlab ov qiladigan okean qirg'og'iga bordi va yangi marvaridlar topish maqsadida chig'anoqlar izlashga kirishdi. Nihoyat kattagina, dumaloq bir marvaridni topib oldi.

Ruben dengizning eng sara marvaridlar topish mumkin bo'lgan yerlarigacha sayohat qildi, u yerlarda suvning tubi ko'pincha kumush va pushti rangda tovlanib turardi. Vaqtlar o'tib, u badavlat odamga aylandi. Undan marvarid xarid qilish uchun dunyoning turli tomonlaridan savdogarlar tashrif buyurishardi.

Biroq Ruben boyib ketgan bo'lsa ham, baxtli emasdi. U borgan sari o'z bolaligi o'tgan dengiz bo'yidagi shaharchani ko'p eslab, sog'ina boshladi. Ayniqsa, birinchi topgan marvaridini unga hadya qilib yuborgan eski do'sti Josh naqadar saxiy bo'lganini qayta-qayta yodga olardi.

Kunlarning birida: "Ruben! - degan ovoz eshitildi.

- Seni ko'rganimdan xursandman!" U dengiz sohilida farzandlari bilan birga o'ynab yurgan Josh edi. Ruben do'stini uchratganidan juda baxtiyor boldi, oradan ko'p yillar o'tgan, uzoq yillar ko'rishmagan bo'lsalar ham, u Josh bilan soatlab suhbatlashib o'tirdi. "Men yetarlicha dunyo kezdim, yetarlicha boylik orttirdim, - dedi Ruben.

- Endi faqat o'zim tug'ilib-o'sgan qadrdon go'shanga qaytib, o'sha yerda tinch-sokin hayot kechirishni istayman. Bir zamonlar menga qilgan saxiyliking evaziga men ham senga bir hadya qilsam deyman. Ayt, nima istaysan?

Yangi uymi yoki hashamatli katta kemami?"

"Rahmat, - dedi Josh, - ammo menga oddiy hayotim yoqadi, menga yangi uy ham, katta kema ham kerak emas. Menimcha, biz qila oladigan eng yaxshi ish - bu boringni boshqalar





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



bilan baham ko'rib yashash. Shundagina hammamiz o'z hayotimizdan mamnun, baxtli yashashimiz mumkin".

Ruben Josh undan hech narsa so'ramaganidan avvaliga hayron qoldi, keyin esa o'zi shuncha boylik orttirgani bilan baxt topa olmagan esiga tushdi-yu, jilmayib qo'ydi. "Haqsan! Biz sen aytgan ishni, albatta, qilamiz", - deb javob qildi u.

Savollar

1) Dengiz bo'yida qanday bolalar o'ynashdi?

- A) Boy bolalar
- B) Kambag'al bolalar
- C) Qishlar va bolalar
- D) Kambag'al va boy bolalar

2) Bolalar dengizdan nima topib olishdi rasmdan toping?



3) Marvaridlar haqida ma'lumot qidirgan bola kim edi?

- A) Josh
- B) Bour
- C) Ruben
- D) Odil

4) Marvaridlar suv tubida qanday rangda tovlanar edi?

- A) Oq va qizil
- B) qora va ko'k
- C) Sariq va kumush rang
- D) Kumush va pushti rangda

5) "Men yetarlicha dunyo kezdim, yetarlicha boylik orttirdim" ushbu fikrni kim aytdi?

- A) Qizlardan biri
- B) Ruben
- C) Kambag'al yigit
- D) Josh

6) Yillar o'tib Ruben Joshga aytgan fikrlarini yozing?

7) Joshning Rubenga javoban so'nggi fikrini ham yozing ?



Test kaliti

PIRLSdan kutilgan natija;

- O‘quvchilarning o‘qish savodxonligi darajasini aniqlash;
- Matnni chuqurroq tushunish;
- Asosiy fikrni ajrata olish;
- Tahlil qila bilish;
- Matndan sabab-oqibatini topish orqali tabiiy fan bilan integratsiyalaydi;
- Matn bo‘yicha xulosa chiqarish;

“Aqliy hujum” metodi

Aqliy hujum – bu biror mavzu, muammo yoki savol bo‘yicha o‘quvchilar tomonidan erkin va tezkor fikrlar aytiladigan interfaol metod. Unda tanqid yo‘q, barcha fikrlar qabul qilinadi, ko‘proq g‘oya yig‘ish maqsad qilinadi. Bu metod kichik yoshdagi o‘quvchilarda faollik, ijodkorlik, erkin fikrlashni rivojlantiradi. Bolalar tezda javob o‘ylashga, mantiqiy fikrni shakllantirishga odatlanadi, tortinchoq o‘quvchilar ham o‘z fikrini aytishga jur‘at topadi.

“Aqliy hujum” metodi

“Quvnoq chumchuq”

Bir kuni kichkina chumchuq daraxt shoxida o‘tirib, osmondagi bulutlarni kuzatib o‘tirardi. Shu payt kuchli shamol esdi va chumchuq o‘z uyini mustahkamlash kerakligini anglab qoldi. U tezda mayda shoxchalarni yig‘ib, uyasini yanada mustahkamladi va yozning issiq kunlariga tayyor bo‘ldi.

O‘quvchilarga savol beriladi: “Matn asosida chumchuq nega uyasini mustahkamladi?” O‘quvchilar cheklovsiz o‘z fikrlarini aytadilar. O‘quvchilardan kutiladigan javoblar: “Chunki shamol kuchli esdi”, “U uyasi qulab tushishidan qo‘rqdi”, “Yozga tayyorlanmoqchi bo‘ldi”, “Balki kuchli yomg‘ir yog‘ishi mumkin deb o‘ylagandir”, “Balki boshqa qushlar kelib bezovta qilishi mumkin”, “O‘zini xavfsiz his qilishni istadi”, “Uyasi eskirgani uchun”.

O‘qituvchi o‘quvchilar bergan fikrlarni 3 toifaga ajratadi:

1. Tabiiy sabablar- Shamol kuchli bo‘lgani uchun, yoz kelayotganligi uchun, yomg‘ir yog‘ishi mumkinligi.
2. Xavfsizlik sabablari- Uya qulab tushishi mumkin, xavfsiz joy qilishni istadi.
3. Faraz (taxminiy) sabablar- boshqa qushlar bezovta qilishi mumkin, uya eskirgandir.

“Aqliy hujum”dan kutilgan natijalar:





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



- O'quvchi fikrlay boshlaydi, emas – aytilgan fikrni takrorlaydi.
- Ko'p fikrlar ichidan eng to'g'risini tanlay oladi (tanqidiy fikrlash).
- O'quvchilar bir mavzuni turli nuqtai nazardan ko'ra oladi.
- Jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlanadi.
- Fanlararo bog'liqlikni o'zlashtirish osonlashadi.
- O'qituvchi o'quvchilarning bilim darajasini tezda aniqlay oladi.

Boshlang'ich sinfda integratsiyani amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi amalga oshiradi. U bolalarga matematika, o'qish, tabiat haqidagi boshlang'ich tushunchalarni va yana ko'pgina narsalarni o'rgatadi. O'qituvchi o'zining kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang'ich sinflarda har bir o'qituvchining dars berishini, alohida olingan integratsiyaning bir usuli deb hisoblasak ham bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davletshin M., To'xtaboeva R. "Pedagogika" – T.: O'qituvchi, 2014.
(Fanlararo integratsiyaning nazariy asoslari berilgan.)
2. Hasanboeva O., Yo'ldosheva M. "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" – Toshkent: TDPU, 2020. (Boshlang'ich fanlarni integratsiyalash bo'yicha amaliy usullar.)
3. Ziyomuhamedov B., Abdurahmonova D. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" – T.: O'qituvchi, 2018. (Interfaol metodlar, integratsiyalashgan darslar asoslari.)